

– Aziz tengdoshlar! Biz ko‘pchilikimiz, «Tong yulduzi» esa bitta. Yangi, 2008-yil uchun unga obuna bo‘lsak, gazeta hammamizniki bo‘ladi! – deydi

Humayra ESHMO‘MINOVA



2007-yil
6 – 12-avgust
N:32
(66625)

Tong YULDUZI

O‘zbekiston Respublikasi bolalari va o‘smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

ORZU

Osmon ko‘m-ko‘k, moviy tusli rang,
Quchog‘ida o‘ynar bulut-par.
Shunda birdan bog‘imga, qarang,
Yomg‘ir yog‘di – tomchi-tomchi zar.
Tiniq-tiniq orzular bunda,
Tug‘ilar-u ko‘kka cho‘zar bo‘y.
Nogoh shodlik to‘lishib shunda,
Xayolimdan o‘tar o‘tli o‘y.
Qani edi tabiat mudom,
Shu maftunlik ichida bo‘lsa.
Gul rayhonlar aylashib xirom,
Chuchmomalar qiqirlab kulsa.

Humayra ESHMO‘MINOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi
tumanidagi 43-maktabning
6-sinf o‘quvchisi



Biz bilan

sira zerikmaysiz!

ESHITMADIM DEMANGLAR!

Siz uchun tandirdan uzilgan yangi asar Ilhom Zoirning «Quvnoq quyoshcha» ertak-qissasini gazetamizning yaqin sonlarida kitob holida chop etamiz. Bizni kuzatib boring.

VITEBSK DAN XUSHXABAR



Aziz bolajonlar, yodingizda bo‘lsa, ikki yil avval Belorussiyaning Vitebsk shahrida yosh estrada qo‘shiqchilarining festivali bo‘lib o‘tgan haqida xabar bergandik. Bu yil ham ushbu ko‘rkam shahar 16 yildan buyon an‘anaviy tarzda o‘tib kelayotgan XVI xalqaro san‘at festivaliga mezbonlik qildi.

– Bu yilgi «Slavyan bozori»ga avvalgilaridan ham ko‘proq mehmonlar kelishdi, – deya xabar qiladi muxbirimiz Nodira Mirzayeva.

19 davlatdan kelgan 22 nafar yosh qo‘shiqchilar orasida O‘zbekiston nomidan kuylagan Jamik Jaz hamda sakkiz yoshli Yulianna ham bor edi. Jamik Jazning bu nufuzli tanlovning diplomanti bo‘lgani hamda «Armando MORENO xotirasiga» diplomi bilan taqdirlangani haqidagi xushxabar barchamizni to‘lqinlantirib yubordi.

Jajji Yuliannamiz ham Vitebskdan bir olam taassurotlar, ezgu niyatlar bilan qaytdi.



Klacc!

5-bet

– MEHMONIMIZ

Zulfiya lirikasiga bir nazar

Zulfiya ijodini o'qib-o'rganar ekanmiz, ba'zida shodlik, sevinch, baxtni, ba'zida esa ayolning hijron nolalarini, ko'ngli yarim, baxti kemptik ayol ruhiyatini kuzatamiz. Bu bejizga emas. Shoira turmush o'rtog'i Hamid Olimjon vafotigacha shod, baxti butun bo'lgan. Taassufki, Hamid Olimjon bu yorug' olamni erta tark etgandan so'ng, shoira hayoti ma'nosini yo'qotadi. Ana shu katta yo'qotish uni o'ksib-o'ksib, dard-alam bilan qalam tebratishga majbur qilgan. Turmush o'rtog'i vafot etganda shoira 29 yoshda bo'lgan. Shu jihati bilan Zulfiyani har tomonlama buyuk shoira Nodiraga qiyoslash mumkin. Nodira ham turmush o'rtog'i Amir Umarxon vafot etganda endigina 30 yoshga to'lgan edi. Ular ijodidagi o'xshashlik shundan iboratki, har ikki shoira she'rlarining aksariyat qismini turmush o'rtog'iga bag'ishlagan. Zulfiya yillar o'tsada, Hamid Olimjonni sevib yashaydi.

*Hijroning qalbmida, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!*

Zulfiya she'rlarida chin sevgini, vafo va sadoqatni tarannum etarkan, o'z qalbini qidiradi, qalbi esa Hamid Olimjon bilan birga ketgan. Demak, shoira she'rlarida o'zining ichki kechinmalarini, ruhiy holatini ifoda etadi:

*Qalbm qolgan edi, bir chog' bu yerda,
Sizning dilingizla jo'nab ketgandim.
Ajdodim, avlodim qiblasi - elda,
Qalbmni sog'inib she'rlar bitkandim,
Qani bunda tashlab ketgan u qalbm?*

Shoira qalbining sohibidan judo bo'lgach, o'z umrini xalqiga bag'ishlaydi. Xalqning dardi, sevinch-u shodliklariga sherik bo'lib yashaydi. Hamid Olimjonni olisdagi yulduzlarga qiyoslaydi:

*Xuddi senday uzoq va senday yorqin,
Avji chaqnaganda so'nadi u ham,
Bir yupanch: sevgimning osmonidan,
O'chmasdan yonasan, ey go'zal hamdam!*

Zulfiya o'zbek xotin - qizlari uchun vafo timsoli bo'lib qoladi. Uning ibratli hayot yo'li bizga maktab vazifasini o'taydi. Uning sadoqatga yo'g'rilgan lirikasi hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, sevib, sevilib mutolaa qilinadi.

Zarifa NORMURODOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
13-umumta'lim maktabining 10-«A» sinf o'quvchisi

BOBOMGA O'XSHAGIM KE LADI

Bobom Sattor Mamatqulov filologiya fanlari doktori edilar. Butun umrlarini ilm-fanga va yosh avlodni tarbiyalashga bag'ishlab, ko'p kitoblar yozganlar. Bu kitoblarning ko'plarini o'zbek tilining nufuzini oshirishga bag'ishlaganlar. Bobom bizga: «Har bir inson o'z ona tilini mukammal bilishi, lutf bilan so'zlashishi zarurligi»ni uqtirganlar.

Men hali yoshman, lekin o'zbek tili lug'atini boyitishga hissa qo'shishni istayman.

Bobomning nasihatlari ham xuddi shunday edi.

Hozir lug'at kitobchamni to'ldirish uchun 500 dan ziyod so'zlar to'pladim. Ko'p kitob o'qiymen. Matnlarda uchragan yangi so'zlarni darrov lug'at daftarimga yozib qo'yaman.

Bobomning qat-qat kitoblarida hali men tushunmaydigan so'zlar ko'p ekan. Ularning ma'nosini ustozlarimdan so'rab bilib olaman. Ayniqsa, Muqaddas opa Muhammadiyeva qilayotgan ishlarimni ma'qullab, lug'at daftarimni (keyinchalik kitobcha shaklida chop etmoqchi) ko'rib, juda quvondilar.

– Aziza, sen bobom Sattor domlani ishlarini albatta davom ettirishing kerak, – deydilar. Ustozimning aytganlarini bajaraman.

Inson astoydil mehnat qilsa, hayotda ko'p narsalarga erishishi mumkinligini bobom misolida angladim.



Aziza SATTOROVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
13-maktab o'quvchisi

KITOB HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?

Kitob – xazina, bilim, boylik. U ko'p yillar avval paydo bo'lgan. Turli davrlarda hajmi va shakli turli ko'rinishda bo'lgan. Avval loydan tayyorlangan, keyinchalik hayvon terilari ustiga mum surtilgan taxtachalarga yozib, kitob tayyorlaganlar. So'ng, ipak matolardan, qog'ozdan kitob tayyorlashda foydalanishgan.

Balandligi bir yarim metrdan oshadigan kitoblar ham yaratilgan. Uni bir kishi ko'tara olmagan. Shuningdek, mitti kitoblar ham bo'lib, ayrimlari gugurt qutisidek, hatto undan ham ixchamlari chop etilgan.

Yildan yilga kitob bosish ishlari takomillashib borgan. Dastlab kitoblar bosmaxonalarda harf terish qo'l kuchi bilan amalga oshirilgan. Keyinchalik mashinalar yordamida terilgan. Endilikda bu ishlar kompyuterda osongina yoziladi. So'ng, bosmaxonalarga yuboriladi. Sahifalarini, rasmlarini joy-joyiga qo'yish, varaqlarini taxlash va tikish ishlarining barini mashinalar bajaradi.

Demak, siz-u bizning kitoblarimizni tayyorlash uchun ham juda ko'p kishilar mehnat qilishar ekan. Shuning uchun ham ularni avaylab tutishimiz kerak.

Maftuna RAHMONBEKOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Respublika
Nafis san'at litseyi o'quvchisi

HAMMAGA YOQDI

Biz oilada uch qizimiz. Men qatori singillarim ham oromgohga borishni istashmadi. To'g'ri-da, uyimiz, hovlimizning o'zi oromgohdan farqi yo'q.

Uy ishlaridan bo'shagan vaqtimizda tikish, to'qish bilan shug'ullanamiz, pazandalik sirlarini o'rganamiz. Yaqinda men o'z qo'llarim bilan tayyorlagan shirliklar hammaga yoqdi.



Nilufar IBROHIM qizi,
Sirdaryo viloyati

QIZIQISHDAN ZARARLI ODATGA

Odatda biz yoshlar har narsaga qiziquvchan bo'lamiz. Ammo shunday bir illat borki, shunchaki havas, qiziqishdan zararli odatga aylanib qoladi. Bu tamaki chekishdir. Ba'zi insonlar uchun chekish odatiy hol.

Lekin bu zararli odat

asrimizning dolzarb muammolaridan biri. Tamakining zarari bizning naslimizga ham ta'sir qilishini bilasizmi? Mutaxassislarning fikricha, chekish tufayli o'pka sili, ko'kyo'tal, o'pka saratoni kabi nasldan naslga o'tuvchi kasalliklar kelib chiqar ekan. Oramizda chekmaydigan, sport bilan shug'ullanadigan, o'zi o'qiyotgan litsey yoki kollejining faxriga aylangan tengdoshlarimiz ham ko'p. Lekin maktablarimizning «orqa tarafi»ga tez-tez o'tib turuvchilar ham yo'q emas. Istartimki, tengdoshlarim orasida bu odat tarqalmasin!



Bashorat ABDURAIMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi
Oxunboboyev nomli maktabning 10-sinf o'quvchisi

BOLALIK IFORINI TUDDIM

Toshkent viloyati, Piskent tumanining eng bahavo va go'zal hududidagi «Tong» sog'lomlashtirish oromgohi bolajonlarning sevimli dam olish maskaniga aylangan. U yerda 500 nafarga yaqin o'g'il-qizlar miriqib dam olishmoqda.

Ular bilan suhbatlashar ekanman, bari mamnuniyat bilan o'z taassurotlarini so'zlaridi:

–Kechagi shaxmat musobaqasida g'olib bo'ldim, – deydi Anvar.

–Men oromgohga kelganimga afsuslanmayman, – suhbatimizga qo'shildi Andrey. –Bu yerga endi har yili kelaman.

Oromgohda kutubxona ham faoliyat olib bormoqda. Kutubxonachilar Malohat Karimova, Mahmuda Aliyevalardan bolajonlar xursand.

O'tkazilayotgan kitobxonlik tanlovlari bolalarning kitobga bo'lgan mehrini oshirmoqda.

– Biz barcha hamkor tashkilotlardan mamnunmiz, – deydi oromgoh rahbari I. Ergasheva.

Kechga yaqin oromgohdan chiqarkanman, bu yerda baxtli bolalikning iforini tuygandek bo'ldim. U yerdagi azim chinorlar ham bolakaylarga orom baxsh etayotganliklaridan mamnundek shivirlashardi go'yo...

Akrom MALIKOV,
Piskent tumanidagi
7-maktab o'quvchisi



BOSHQALARDAN QOLISHMAYDI



Har yili yozgi ta'tilni 115-maktab qoshida tashkil etilgan «Navro'z» oromgohida o'tkazaman. Sababi, bu yerda hecham zerikmayman-da. Turli tanlovlar o'tkazamiz, shaxmat, shashka kabi qiziqarli o'yinlar o'ynaymiz, tikuvchilik to'garagida bichish-tikishni o'rganamiz. Cho'milish havzasi barchamizning sevimli joyimiz. Bu yerda iste'dodli bolalar juda ko'p. «Biz tinchlikni asraymiz» nomli asfaltga rasm chizish bo'yicha o'tkazilgan tanlovda ana shunday bolalardan 1-guruh dam oluvchilari Hamid va Shahzoda g'olib bo'lishdi. Bir so'z bilan aytganda, dam olish maskanimiz tog' bag'ridagi so'lim oromgohlardan hecham qolishmaydi. Bizga shunday sharoitlar yaratib berishgani uchun maktabimiz rahbari Saodat opaga hamda oromgohimiz rahbari Gulbahor opaga rahmat aytmoqchiman.

Munisa SAIDXO'JAYEVA,
Toshkent shahridagi
69-maktabning II-sinf o'quvchisi

TA'TILNI UYDA O'TKAZAR EDIK



Toshkent Traktor zavodi ochiq aksiyadorlik jamiyati korxonasiga qarashli Bildirsoy oromgohidamiz. Ushbu oromgoh bir qarashda kishida kichik bir shaharcha taassurotini qoldiradi. Bu yerda dam olayotgan tengdoshlaringiz va tarbiyachilar O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan «Shu aziz Vatan barchamizniki!» mavzusidagi adabiy-badiiy kechada elimizning taniqli ijodkorlari hamda professor o'qituvchilar bilan uchrashdilar, o'z bolaliklarini xotirlab gapirib berdilar.

Tengdoshlaringizga Toshkent shahridagi «Gulshan», «Yulduz» madaniyat uyi xodimlari Vatan haqidagi kuy-qo'shiqlari bilan o'z dasturlarini namoyish etdilar.

– Bolaligimizda yozgi ta'tilni uyda o'tkazar edik, – deydi shoira Halima Ahmedova. – Yoshlarga davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarni ko'rib, quvonib ketaman. Qani endi bolaligim qaytsa-yu, xuddi sizlardek mana shunday go'zal maskanlarda dam olsam!

– Bu yerda Toshkent viloyatidan kelgan kam ta'minlangan oilalarning farzandlari ham dam olmoqdalar, – deydi tadbir tashkilotchisi Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani Ma'naviyat va ma'rifat kengashi mas'ul kotibi Halima Jumaniyozova. –Har xil yo'nalishlarda tadbirlar uyushtirib, bolajonlarimiz holidan tez-tez xabar olib turibmiz.

Oromgohni aylanan ekanmiz, daraxtlar va did bilan o'stirilgan har xil gullarga havas bilan tikildik. Tengdoshingiz Shahrizod Shorahmatov bilan yaqindan tanishishga qiziqdik. U Toshkent shahridagi 178-maktabda tahsil olarkan.

–Men har yili yozgi ta'tilda Bildirsoy oromgohida dam olaman, – deydi u. –Bu yerda sport to'garaklarida qatnashamiz, turli musobaqalar uyushtiriladi. G'oliblarga maxsus mukofotlar – bepul kompyuter o'yinlaridan foydalanish imkoniyati beriladi.

Oromgohning Axborot resurs markazidamiz. Toshkent shahridagi 256-maktab o'quvchisi Nigora Normatova kitob mutolaa qilayotgan ekan.

–Kutubxonada kerakli bo'lgan hamma adabiyotlar bor, – deydi Nigora.

Robiya XUDOYBERDIYEVA,
Kamola TOSHPOLATOVA

Shoyim BO'TAYEV

(Boshi o'tgan sonda.)

Ayiq odam juda sabr-toqatli, chidamli edi, shundayam parvo qilmayotgandek pinagini buzmad.

Uning pinak buzmaganiidan tom boshidagi tomchilar hayron qolishdi. Axir bunday chog'da bir sovuq tomchi har qanday odamning boshiga tushsa ham uni tahlikaga solib qo'yadi-da.


– Bu qoyamikin? – endi tomni teshib o'tishga chog'lanayotgan tomchi raqibining kimligini aniqlashtirib olmoqchi bo'lganday yaltirab qo'ydi.

– Yo'g'-e, odam bo'lsa kerak, – dedi boshqasi.

– Agar odam bo'lganida birinchi zarbadayoq aqlini yig'ib, harakatga tu-

(Ertak-qissa)

AYIQ ODAM



shardi, – deyishdi tajribali tomchilar.

– Unda ayiq bo'lsa kerak, – deb taxmin qildi yana bir tomchi.

– Ayiq bo'lganda boshiga ikki tomchi tushgandayoq o'ziga kelardi, – deyishdi tajribali tomchilar o'z tajribalaridan kelib chiqishib.

– Demak, bu qoya ekan! – xulosa chiqardi tomni teshib o'tishga chog'lanayotgan tomchi va ortidan yana bir yuz-u o'n ikki ming tomchini ergashtirib Ayiq odamning boshini mo'ljalga olishdi.

Ketma-ket tushaversa tomchi ham toshdan og'ir bo'lib ketarkan. Jon shirinlik qilib Ayiq odam ari talayotgandek dodlaganicha o'z uyidan qochib chiqib, tikka Ustaning darvozasi oldiga kelib qoldi.

Darvozani taqillatdi.

Usta chiqdi.

Qarasa, dag' - dag' titraganicha qo'shnisi turibdi.

– Keling qo'shni, tinchlikmi? – so'radi Usta.

Ayiq odam bor gapni aytib berdi. Tomchilarning dastidan, kulbasining tomidan chakki o'tmagan joy qolmaganidan shikoyat qildi.

– Ayb o'zingizda, – dedi Usta, u shunaqa, to'g'ri gapni kim bo'lsayam, betiga aytardi. – Issiq kunlarda tomingizni shuvoq qilganingizda, bunaqa ahvolga tushib o'tirmasdingiz.



– Endi nima qilsam ekan? – so'radi Ayiq odam, u juda no'noqligidan nima qilishini ham bilmasdi.

Usta kift qisdi.

Shunda Ayiq odamning ko'zi darvozaxonadagi narvonga tushib qoldi-yu, dardining davosi topilgandek suyunib:

– Narvoningizni berib tursangiz, – dedi.

(Davomi 4-betda.)



Bolalar, chempion bo'lishni kim ham orzu qilmaydi, deysiz?!

«O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan ikki ming nusxada chop etilgan «Chempionlik sirlari» nomli kitobni olib o'qisangiz, juda ko'p narsalarni bilib olasiz. Taniqli sport jurnalisti Asror Mo'min bu kitobni ataylab sizlar uchun yozdi.

Uni o'qib, bolalikdan o'zingiz yoqtirgan biror sport turini to'g'ri tanlashingiz lozimligini bilib olasiz. Boks

G'ALABANING SIRI NIMADA?

bo'yicha Olimpiya chempioni Muhammadqodir Abdullayev 12 yoshidan, shaxmat bo'yicha xalqaro grossmeyster Rustam Qosimjonov 5 yoshidan, boks bo'yicha jahon chempioni Ruslan Chagayev 10 yoshidan, shuningdek, betakror futbolchimiz Mirjalol Qosimov, fristayl bo'yicha Olimpiya chempioni Lina Cheryazova, muatay boks turi bo'yicha besh karra jahon chempioni Erkinboy Qutiboyevning bolalikdanoq sportga mehr qo'yishgani haqidagi qiziqarli hikoyalarni aynan shu kitobdan topasiz. Yana bu kitobga jahon futbol yulduzlari Zayniddin Zidan, braziliyalik Ronaldo Luis Nazario da Lima hamda litvalik mashhur basketbolchi Arvidas Ramos Sabonisning bolaligi va ularning hayot yo'llari haqidagi hikoyalarni ham o'qisiz.

Aytganday, dunyodagi eng katta stadion qaysi shaharda, bilasizmi? Ushbu kitobning orqa muqovasiga ko'z tashlasangiz, Braziliyadagi mo'jizaviy stadionni ko'rasiz.

Eng muhimi, ushbu kitobni yozgi ta'tilning maroqli kunlarida o'qib, miriqib dam olishingiz mumkin.

OLTIN MEDALLI BOLA

Bugun tengdoshingiz Nodirjonning ko'ksini medallar shodasi bezab turibdi. Bu medallar uning 10 yoshidan buyon qilgan tinimsiz mashqlari, mehnatlari mevasidir. Sportning kikkboksing turini tanlagan zangiotalik Nodirjon Sharipov mustaqillik tengdoshi.

U 2004-yilda Qashqadaryoda bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada ilk katta g'alabasini qo'lga kiritdi. Faxrli 1-o'ringa sazovor bo'lib poytaxtga qaytayotgan Nodirjon bu quvonchli xabarni tezroq oila a'zolariga yetkazishga oshiqar, oltin medalini hamma-hammaga ko'z-ko'zlagisi kelardi.

2005-yilda esa poytaxtda o'tgan respublika birinchiligi musobaqalarida faxrli 2-o'rin va Samarqanddagi xalqaro turnirda kumush medal sohibiga aylandi.


Ko'ksidagi medallari soni ortgani sayin o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usi ham orta borar, uni yangi-yangi g'alabalar sari chorlayverardi. U endi respublika miqyosidagi turnirlardan faqat medallar bilan qaytadigan bo'ldi. Dunyoni lol qoldiruvchi g'alabalar sari intilishi uchun esa yurtimizda imkoniyatlar bisyor.

Yaqinda poytaxtda o'tgan yoshlar bo'yicha kikkboksing musobaqasi uni yana katta mukofot bilan siyladi. Nodirjon Sharipov ushbu musobaqani ikki yo'nalishda - «semi-kontakt» va «full-kontakt» bo'yicha mutlaq g'olib sifatida yakunladi. Qarabsizki, Nodirjonning ko'ksini Jahon kikkboksing federatsiyasining oltin medali bezatib turibdi-da!

- Kikkboksing jiddiy yakkakurash turi bo'lishiga qaramay, sportchilarimiz jahon chempionatlarida faol qatnashib, yaxshi natijalarni qo'lga kiritayotganlaridan mamnunmiz, - deydi uning ustoz Davron Qodirov.

Nodirjon singari yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratayotgan umidli sportchilarimiz ko'pligidan biz ham juda xursandmiz.

Ma'mura MADRAHIMOVA



(Boshi 3-betda.)

- Narvonni nima qilasiz? - so'radi Usta.

- Tomga chiqib chakka o'tayotgan joylarni tuzatib tushaman, - dedi Ayiq odam.

Usta, hozir loygarchilikda behuda ovora bo'lasiz, demoqchi bo'ldi-yu, narvon so'rab turgani uchun bergisi kelmayapti, deya o'ylab ko'ngliga kelmasin, degan xayolda indamadi. Mayli, oling, dedi. Ayiq odam narvonni ko'tarib ketdi.

Tomga qo'ydi.

O'zi bir amallab tomga chiqib, nimalardir qila boshladi.

Sharros yomg'ir yana quyib yubordi.

Ayiq odam shosha-pisha pastga tushdi.

Uning oyog'ida poyabzalni bor-yo'qligi ham noma'lum edi. Lekin

AYIQ ODAM



oyog'iga botmon loy yopishgani chin edi. U o'ylab o'tirmay, shosha-pisha oyog'ining loyini narvonning pastki poyasi Hasanga artdi-da, shosha-pisha uyga kirib ketdi.

Narvonning Usta Hasan deb atagan pastki poyasi loyga botib, Ayiq odamning bu qilg'idan xafa bo'lib qolaverdi.

Uning bu holatini sezgan ikkinchi

Hasan:

- Qo'yaver, xafa bo'lishga arzimaydi, erta oftob chiqsa, u qoldirib ketgan loy qurib, tushib ketadi, - deb tasalli bergan bo'ldi.

- Xafa bo'lma, - dedi uchinchi Hasan ham.

- Arzimaydi, - dedi to'rtinchi Hasan.

- Shuyam gapmi, - dedi beshinchi Hasan.

O'rtancha Hasan-Husanlar ham ko'ngil ko'taradigan qandaydir so'zlar aytishdi.

Ammo Husanlardan miq etgan sado chiqmadi.

Tom boshidagi Husan bo'lsa negadir kulib yubordi.

Uning kulgisi hammaga eshitildi.

Qitig'i kelganidan kulgan bo'lsa kerak, deb hech kim e'tibor bermadi.

Husan endi qah-qah otib kuldi.

- Nega kulasan? - jahl bilan so'radi serzarda to'rtinchi Hasan.

- Akamiz Hasanning ahvoliga-da, -

dedi Husan. - Kim xohlasa unga oyog'ini artdi, xohlasa tepib o'tadi, ishqilib, ko'ngli nimaiki bemaza ishni xohlasa, Hasanga nisbatan qilaveradi, shunga kulgim qistadi.

- Bu ishlarni ko'rib, sen yig'lashing kerak, nahotki kulsang, - dedi beshinchi Hasan. - Axir pastda ana shu birovlar tomonidan - tepib tahqirlanayotgan, azob chekayotgan akamiz Hasan bo'lmasa, biz ham hech kimmasmizku, nahotki shuni tushunmasang?

- Tushunishni ham istamayman! - dedi kalondimog'lik bilan Husan. - Negaki, men hammadan yuqorida, ozoda, daxlsiz holda yashayman!..

U shunday deb turganida yomg'ir tinib, tun cho'kdi. Osmonda yulduzlar miltiradi. Oymomo ham ko'rindi. Ularning hammasi aka-ukalarning o'rtasidagi gap-so'zlarga hayron bo'lgancha quloq solishayotgan edi.

(Davomi bor.)

Klass! - MEHMONIMIZ



HAVO TO'LIQLARIDA BOLALAR

«Klass!» gazetasining yosh muxbirlari radioda, to'g'ridan-to'g'ri to'liqlarda! «Bolalik kamalagi» dasturining muharriri Natalya Yudina yosh muxbirlarni quyidagi kutilmagan savollar bilan shoshirib qo'ydi:

«Gazeta haqida, «Ptitsegrad» klubi haqida qanday maqolalar bosib chiqarilmoqda, gazeta yubileyini qanday nishonlamoqchisiz?»

Agar bu savollarni do'stlarimiz berishsa, javob berish ish emas. Efirda esa senga mutlaqo begona bo'lgan odam savollar bilan murojaat qiladi, ularga shu vaqtning o'zidayoq javob berish kerak. Bu esa ancha murakkab vazifadir. Keyinroq gazetamizning bosh muharriri Alla Suxanovich bizga gazetamiz tarixi haqida gapirib berdilar, u avval «Pioner vostoka» deb nomlangan ekan. Shu yil 4 noyabrda gazetamizning 80 yillik yubileyini noshonlaymiz. Sizlar ham bu shodiyonaga tashrif buyuringlar.

O'ylaymanki, biz radioda yomon chiqish qilmadik. Keyin bilsak, dasturdan so'ng tahririyatda telefon qo'ng'iroqlari tinmabdi. Muxbirlar qo'ng'iroqlarga javob berishga ulgurmadilar. Katta-yu kichik gazetaga qanday obuna bo'lish mumkin, tahririyatga kelib yosh muxbir bo'lsa bo'ladimi-kabi savollar bilan murojaat qilishibdi. Bu juda yaxshi, albatta. Chunki tahririyatga qobiliyatli yosh muxbirlar kelishadi-da. Demak, biz bekorga harakat qilmabmiz.

Elmira BEGLOVA, 43-maktabning 5-sinf o'quvchisi, «Klass!» gazetasining eng faol yosh muxbiri

Aziz bolajonlar!

Gazetamizda Serafima buvi ismli ajoyib qahramonimiz paydo bo'ldi. U bizlarga «Ijtimoiy himoya yili»da mamlakatimizda qanday ishlar amalga oshirilayotganini so'zlab beradi. Shu bilan birga, o'quvchilar bilan dildan suhbatlar olib boradi. Serafima buvi yaqinda yana bir xat oldi, uni sizlarga havola etmoqchimiz:

Huzmatli Serafima buvi!

– Biz 4-«Z» sinf o'quvchilarimiz. Har doim «Klass!» gazetasini o'qiyamiz. Tengdoshlarimiz maktublari ustida bahs-munozara olib boramiz. Muvaffaqiyatlaridan quvonamiz, biror-bir noxush voqea vujudga kelsa, xavotir olamiz.

Men ahil sinfimiz haqida yozmoqchiman. Bizning Farrux ismli sinfdoshimiz bilan ko'ngilsiz voqea sodir bo'ldi. U velosiped minib aylanib yurganida, to'satdan toshga qoqilib, velosipeddan yiqilib tushibdi va jiddiy lat yebdi.

Shifokorlar dastlab unga «Bosh miyaning chayqalishi» tashxisini qo'yishdi. Keyin bilsak, bosh chanog'i shikastlanibdi.

Hozir Farrux shifoxonada davolanmoqda. Bizga

shifokorlar uni bezovta qilmaslikni tayinlashdi. Shunda barchamiz unga xat yozishga ahd qildik.

Artyom kulguli rasmlar chizdi. Kimdir o'zi yaxshi ko'rgan o'yinchog'ini, kimdir konfet, shokolad olib keldi. Muslima esa u haqda hikoya yozdi. Xatlar va sovg'alarni Farruxning onasiga berib yubordik. Ular shunchalik quvonganlaridan

yig'lab yubordilar va bizdan behad xursand bo'ldilar.

Keyingi kuni esa ular yonimizga kelib, Farruxning qanchalik xursand bo'lganini gapirib berdilar.

Biz Farruxdan juda xavotirdamiz. Uni tezroq tuzalib ketishini, endi boshqa noxushliklar bo'lmasligini xohlaymiz.

Serafima buvi, biz Farruxni tuzalib, sinfimizga qaytib kelishini juda-juda xohlaymiz.

Sarvinov RAHMONOVA, Namangan shahar, 49-maktabning 4-sinf o'quvchisi

Har bir mamlakatning poytaxti bo'lgani kabi bizda ham – gazeta poytaxti, ya'ni tahririyatimiz bor. Bu yerda tinib-tinchimas boshqaruvchilar – Bosh muharrir va xodimlar ertalabdan kechgacha kelgan xatlar, maqolalar, ma'lumotlarni ko'rib, o'z o'rniga qo'yib chiqishadi. Yana, turli qiziqarli tanlovlar va sayohatlar o'tkazishga buyruq beradilar, biz bu buyruqlarni bajon-u dil bajaramiz.

GAZETA

Butun mamlakat bo'yicha «Kirish» irmog'i bo'ylab 1-4 sinfgacha bo'lgan o'quvchilarning ko'plab hikoyalari oqib o'tadi. «Maktab klubi» rukniga esa mamlakatning turli maktablaridan xabarlar kelib tushadi.

Bizlar qandaymiz? Qanday bo'lmoqchimiz? Bu haqda biz «Sirlarimiz dunyo bo'ylab»ni o'qib, «Dilkash bekat»da bilib olishimiz mumkin. Biz u yerda «Dunyodagi hamma narsalar xususida»ni «O'qib, fikrlaymiz», shu bilan birga, «Klass!» koleydoskopi»ga nazar tashlaymiz.

Mamlakatimizda «Ptitsegrad», «Eremurus» nomli ikkita qo'riqxonaga klubimiz bor. U yerda bo'lganimizda, «Atrofimizdagi olam», «O'z o'lkangni yaxshi ko'r, kecha, bugun va ertaga»ni ko'ramiz.

«Klass!» gazetasi tufayli did bilan yashashni o'rganamiz, salomatligimiz pillapoyalaridan shod-u xurram odimlaymiz, «Kuznechik»da sevimli sport turlarimiz bilan shug'ullanamiz. «Yosh muxbirlar maktabi»da dars olib, bolalar huquqini o'rgangan holda «Quvnoq tanaffus»da dam olamiz. «Klass!» boshqotirmalari ustida bosh qotiramiz.

Umuman, «O'zingni zeriktirib qo'yma!», shuningdek, skanvordlar, boshqotirmalar va rebuslar dengizini suzib o'tib kelish mumkin bo'lgan «Zerikma» orolida dam olishni yaxshi ko'ramiz.

«Klass!» mamlakatining fuqarosi Roma GOLUBEV, yosh muxbir



SAHROGA SAYOHAT

Sayohatga yangi taassurotlarga, shuningdek, o'zingizga bo'lgan qiziqish sizni juda olislarga eltib qo'yishi mumkin.

«Jayron – 2007 izidan» yoshlar etnografik ekspeditsiyasi tarkibidagi «Klass!» gazetasi jamoasi quyoshli poytaxtimizdan yo'lga chiqib, Buxoro Jayron qo'riqxonasi cho'llariga yetib borguncha yuzlab chaqirim masofani bosib o'tdi.

O'n ikki soat yo'l yurib, nihoyat Buxoro viloyatining azim shahri Kogonga yetib keldik. Bu yerda ekspeditsiyamizni O'zbekiston Liberal Demokratik partiyasi a'zosi Tatyana Gareyeva kutib oldi. U bizga Buxoro cho'llari bo'ylab hamrohlik qilib, oltin nurlarini taratayotgan shaharning hayoti haqida gapirib berdi.

Biz Qizilqum cho'llariga, qumlar, saksovullar orasidagi dunyoga mashhur «Jayron» ekomarkaziga sayohat qildik. Bu markaz haqida ingliz yozuvchisi

«Kenguru bolasining yo'li», «Hayvonot bog'i yukxonamda» «Edvenchergacha uchta chipta» kabi kitoblar muallifi, tabiatshunos Jeron Darrel havas bilan gapirgan. Yaqinda esa qushlar olamiga sayohat uyushtirdik. Xoh ishonang, xoh ishonmang, biz to'rt mingdan ziyod qushlarni ko'rdik. Ular bizni soni bilan ham, chiroyi bilan ham rom etishdi. Ayniqsa, yosh muxbirlarimizning xo'rozni tustovuq bilan adashtirib yuborishlarini kuzatib turish judayam qiziqarli va kulgili edi. Keyin biz qurbaqalar tutdik, chiyabo'rini ko'ziga yoritgich bilan nur tushirdik. Qarasak, u chiyabo'ri emas, do'stimiz Maksim Mitropolskiyning kuchugi Vetta ekan.

Mana yetti yildirki, «Klass!» gazetasi qoshida «Ptitsegrad» klubi faoliyat yuritmoqda. Lekin bunday sayohat hali bo'lmagandi.

Qanotli do'stlarimiz dunyosini o'rganish bo'yicha hamkorimiz – Butun dunyo qushlarini himoya qilish tashkiloti «Birdlife international» bilan «O'zbekistonning muhim ornitologik hududlari» nomli katta ilmiy loyiha asosida ishlab kelmoqdamiz. «Dalvarzin» ov xo'jaligiga kelgan ekspeditsiyamiz Toshkent viloyati hududidagi oq laylaklarni hisobga olish maqsadida uyushtirilgandi. Biz 97 ta qushlarni va 46 qush uyasini hisobga oldik.

Alla SUXANOVICH, «Qushlar» to'dasi boshlig'i

Muhammadisлом ZOHIDOV tarjimasi



GO'SHTSIZ OSH

Yoshligimda kitob bilan bo'lib o'tgan ajib bir voqeani juda yaxshi eslayman. Bu voqea 6-sinfda o'qib yurgan kezarimda bo'lib o'tgan edi. Maktabga sinfdosh do'stlarim bilan hasharga borib turar edik.

Bir kuni kutubxonachimiz Almira opa yangi kitoblar olib keldilar. Ular orasida anchadan buyon qidirib yurgan «Marko Polo sarguzashtlari» kitobi ham bor edi. Barcha kitoblarni tashib bo'ldik. Lekin ayni shu kitobni so'rash yodimdan chiqibdi. Uyga ketayotib, ertaga olaman, degan o'y bilan o'zimni ovuntirdim, lekin ertasi kuni uyimizga to'satdan mehmonlar kelib qolib, kutubxonaga borolmadim. Meni do'konga go'sht olib kelishga jo'natishdi. Uydan chiqayotib, yana o'sha kitob esimga tushdi va azbaroyi o'qishni xohlaganimdan to'g'ri maktabga yo'l oldim. Maktab hovlisida direktorni ko'rib qoldim.

– Nima uchun kelding? – deb so'radilar ular.

– Yoz kunlarini bekor o'tkazmaslik uchun kitob olib ketgani keldim, – dedim. Direktorimiz mendan rosa xursand bo'ldilar. Htto maqto'v ham eshitdim. Shundan so'ng, kutubxonaga yo'l oldim. Almira Anvarovna bir o'zlari kechagi kitoblarni taxlayotgan ekanlar. Ularga rosa achinib ketdim. Keyin

yordamlashish uchun ijozat so'rab, ishga kirishib ketdim. Xullas, maktabdan chiqib, uyga yetib kelgunimcha soat uch yarim bo'lib qolgan edi. Uyda hamma mendan xavotir olib, oshni ham go'shtsiz tayyorlashibdi. Otam meni ko'rdilar-u, indan ay ishingni qil, dedilar. Shu bo'yi men bilan gaplashmadilar. Onam esa qayta-qayta, qayerda eding, deb so'rayverdilar. Kechga yaqin bo'lgan voqeani otam va onamga aytib berganim-da, menga ishonqiramay turishdi. Bir mahal eshik qo'ng'irog'i chalindi. Eshikni ochib, ne ko'z bilan qarayki, o'zimizning kutubxonachimiz Almira opa turibdilar.

– Bu seniki shekilli?, – dedilar menga kitobni ko'rsatib. Otam bu holdan ajablandilar-ku, lekin meni kechirdilar. Mehmonlar tarqalgach, hammamiz birga kitobni bir boshdan o'qib chiqdik.

Z. MUHAMMADISLOM



Doiram «dum-dum» etadi...

SOG'INAMAN, SINFDOHLARIM

Bir kun kelib ayrilsak agar,
Paydo bo'lar ko'zda yoshlarim.
Yuragimda qolasiz mangu,
Sog'inaman, sinfdoshlarim.
Siz-la o'tdi baxtli kunlarim,
Siz-la yurdim nurli yo'llardan.
Poyandozdir dil satrlarim,
Topay endi, sizni qaylardan?
Gulzorimda so'lim gulimsiz,
Qayg'u kelsa, siz bardoshlarim.
Sirdoshim siz jon-u dilimsiz,
Unutmayman, sinfdoshlarim.

QALDIRG'OCH

– Hoy qaldirg'och, qaldirg'och,
Tiniming yo'q erta-kech.
Qano'tlaring qayrag'och,
Yurida zavol topma hech.
Iningni bardosh ila,
Mustahkam o'rnatasan.
Palaponing bir yo'la,
Parvozga o'rgatasan.

Ma'mura YOQUBOVA

Murod ABDULLAYEV

Kir Siparangizning qo'liga kishan urib, mast-alast elchilariga bildirdi. Shartga ko'ra Kirning lashkarlari daryodan o'tib kelishi va to'y tantanasi bo'lib turgan kezda Siparangiz qo'lidagi kishan yechilib, o'z eliga qaytarilishi kerak edi.

– Endi sovchi bo'lib borasizlar! – dedi. – Avval ko'nmagan bo'lsa, endi ko'nadi. O'g'lining joni ko'ziga shirin ko'rinmasin-chi!..

* * *

Ko'hitangdan ot qo'yib kelayotgan katta lashkar boshidagi To'maris ona oldidan yana oq bayroq ko'targan elchilar chiqib qoldilar. Ularning endigi niyati ham To'maris onaga darhol ayon bo'ldi. Ular avvalgi gaplarini yana to'tilarcha qaytarib bo'lishgach, shartni ko'ndalang qo'yidilar: «Shahanshohning taklifiga ko'nmasangiz, Siparangizdan ham ayrilasiz...»

– Yo, falak, – deb yubordi To'maris ona, – bunday ko'rgilik ham bormidi?!

Hiylakor Kir nishonga bexato'rgan edi. Uning nishoni ona yuragi edi. Ona yuragi esa... ikki o't orasida tutab yonardi: «Hey, nomard! Maqsading Turonzaminni bo'yin egdirish ekan, ochiq maydonga chiqa qolmaysanmi? Yo'q, sen qo'rroq va nomardsan! Shuning uchun ham makr yo'lini tanlabsan. Mayli... endi men ham sening yo'lingni tutaman. Quyosh tangrim menga madad beradi».



(Esse)

To'maris ona Kirning shartiga ko'nganini

elchilarga bildirdi. Shartga ko'ra Kirning

lashkarlari daryodan o'tib kelishi va to'y

tantanasini bo'lib turgan kezda

Siparangiz qo'lidagi kishan

yechilib, o'z eliga qaytarilishi

kerak edi.

Ona tongla lashkar bosh-

liqlarini yo'qlatdi.

– Bolalarim, dushmanning

shartiga ko'nganimiz – bu aslo

yengilganimiz emas. Turon lashkari

yengilmasdir. Sizlar o'ylamanglarki, Kir

oyog'i ostida qoldik deb. Yo'q, men hayot

ekanman, sizlarday yovqur lashkarboshi-

yu lashkarlarim bor ekan, aslo bunday

bo'lmagay. Hech kimga sir bermasdan,

hushyorlikni yo'qotmasdan turgaysizlar.

Ilk imkoniyat tug'ilishi bilan men sizlarni

ulug' jangga chorlagayman! U battolning

sharti Siparangizning joni evaziga meni

xotinlikka olish ekan. Biz bunga hozircha

«xo'p» dedik. Siparangiz yoshlik qilib, u

battol tuzog'iga tushgani zinhor

eslaringdan chiqmasin, toki bu xatoni zinhor

takrorlamagaysizlar!

* * *

Hammayoq to's-to'polon bo'lib ketdi. Massagetlar qo'llariga duch kelgan qurol bilan dushmanga tashlanishdi. Jayronqir va Otquduq o'rlarida To'maris ona ishorasini kutib yotgan lashkar ham suron solib, to'rt tarafdin Kir qo'shinini o'rab oldi.

Manglaydan zarba beruvchi asosiy qo'shin halqa hosil qilib, dushman lashkarini o'rtaga olib kirar ekan,

Boshi o'tgan sonlarda.

orqadan zarba berishga tayin etilgan Zarina boshliq sipohlar o'rama yoyning ikkinchi halqasini birlashtirib, birorta dushman sipohining oradan qochib chiqishiga imkon bermasdi.

* * *

Og'ir jang borardi Qorado'ng qirliklarida.

Kirning barcha rejaları chippakka chiqa boshladi. Jangning bunday tus olishini shohlar shohi kutmagan edi. Uning o'rdasi lashkarning o'rtarog'ida, shu bois u hamma jang manzarasini ko'rib turardi.

Boysun yaqinidagi Temir darada, Ko'hitangning ko'z ilg'amas g'orlari-yu kichik daralarida jang tadorigini ko'rib o'tirgan massagetlar lashkarining oldi yetib kelishi bilan esa dushmanga sichqonning ini ming tanga bo'lib qoldi.

Nihoyat, dushman sipohlaridan sog' qolganlari duch kelgan tarafga tum-taraqay bo'lib qocha boshlashdi. Biroq, Qirqulochning qayrilma o'ngirlari ortida dubulg'alar bilan himoyalangan, o'q-yoy-u nayza-qilich bilan qurollangan keksalar-u o'smirlar ham ularning yo'lini to'sib chiqa boshladilar. Ular orasida bo'lgan Kirning o'zi ham qamalda qoldi.

Bu ulug' bir jang edi. Bosqinchini yer tishlatish qasosida yongan, Vatanning har qarich tuprog'ini, ajdodlar sha'nini aziz bilgan massagetlar uchun hayot-mamot jangi edi. Taqdir ularga kulib boqdi. To'maris onaning tushida ayon bo'lgan voqea Temir dara boshidagi Chak-chak vodiysida emas, uning yo'lidagi ochiq qirlar ustida nihoya topgani endi hammaga ayon edi. O'rliklar-u jarliklarni dushman o'liklari bosib ketdi. Massagetlar qadim an'anaga amal qilib, shahid ketgan birodarlari jasadini yerlashar ekan, To'maris ona so'radi:

– Kir ham o'ldimi?

– O'ldi!

TAMOM.

O'ZBEKISTON - XITOYLIK O'QUVCHILAR DARSIGIDA

Yo'nalishimiz Qozog'iston Respublikasining bepoyon cho'llari orqali Xitoy Xalq Respublikasi tomon borar ekan, ko'nglimizni qarama-qarshi tuyg'u - g'amg'inlik va shodlik egallab olgan edi. G'amg'inligimizning boisi, daqiqa sayin muqaddas ona zaminimizdan uzoqlashayotgan bo'lsak, shodligimizga sabab esa o'zga yurt tanishuvi, yangi do'stlar orttirish hayajoni bor edi.

Va, nihoyat, manzilga yetib keldik. Ulkan tog'lar orasidan o'tar ekanmiz, xitoylik birodarlarimizning ochiq chehralarini ko'rib, dilimiz yayrab ketdi.

Xitoylik do'stlarimiz va bolalar hayotini yaqindan o'rganishga harakat qildik. Va o'zimiz guvoh bo'lgan voqea-hodisalarni Siz aziz bolajonlarga ham ilindik.

Xitoyga safar



Tarjimonning ta'kidlashicha, Xitoy mamlakatida 54 millat, Urumchi shahrida esa 15 dan ziyod millat vakillari istiqomat qiladi. Birgina Urumchi shahrida 6 ta tuman bo'lib, har bir tumanda 100 dan ortiq yirik ishlab chiqarish fabrikalari faoliyat yuritadi.

qo'ydim. Biroq, bolajonlar bunga e'tibor ham bermadi. Sababi, ularning butun diqqati qo'lidagi kitobda edi. Shuning uchun ham ularning diqqatini bo'lishni istamadim va bolalar bo'limidan chiqib, tarjimon boshchiligida havaskor rassomlar bo'limiga o'tdik.

«YER YUZIDA TINCHLIK BO'LSIN!»

Havaskor rassomlar bo'limida ham 10 dan ziyod bolakaylar surat chizish bilan band edi. Ularga rahbarlik qilayotgan Fan Ay Jung muallimning aytishicha, rasm chizishni yaxshi ko'radigan bolalar juda ko'p ekan. Ularni qiziqtirish uchun chizgan suratlarini kitob do'konining ko'rgazmali zaliga qo'yishar, bu esa bolalar uchun katta mukofot ekan.

2-sinf o'quvchisi Madina Ahmadning chizgan rasmini ta'riflab berishini so'raganimizda, u: «Yer yuzida tinchlik bo'lsin», deb nomladim, - dedi hayajonini yashirmay.

Xitoylik bolakaylarning kitobxonligi haqida o'ylar ekanman, beixtiyor o'z farzandlarimiz ko'z oldimda



KITOBXON BOLALAR

Tarjimon janob Abdulatbek boshchiligida Urumchi shahridagi ikki qavatli kitob do'koniga bordik. Bolalar adabiyoti bo'limiga kirganimizda, u yerda asosan 14 yoshgacha bo'lgan 100 dan ortiq bolakaylarni ko'rib, rosti, bu yerda biror tadbir bo'layotganmikin, degan xayolga bordik. Yo'q, yanglishibmiz. Janob tarjimonning ta'kidlashicha, bolalar bo'limi hamisha kitobxon o'quvchilar bilan gavjum. Ayniqsa, yakshanba bo'lgani uchun ham bolalar har kungidan yana-da ko'proq ekan.

Kitobsevar bolalar avvalo kitob bilan do'konning o'zida tanishib chiqadilar. Kitob ma'qul bo'lsagina, xarid qiladilar. Ular kitob bilan soatlab, hatto ertadan kechgacha tanishib chiqishlari mumkin.

Bordi-yu sotib olmasalar ham sotuvchi xafa bo'lmaydi.

Bolakaylar shu qadar mutolaaga berilib ketganidanmi, hatto polga o'tirib olishadi. Ota-onalari farzandlariga «Yerga o'tirma, unday qilma, bunday qilma», deb tanbeh ham berishmaydi.

Bu manzaradan o'ta ta'sirlandim va ayrimlarini erkalgim kelib, boshini silab

Lyu Jov, Shixeszi shahridagi 4-maktabning 8-sinf o'quvchisi:


- Men O'zbekiston haqida yaxshi bilaman. Uning poytaxti Toshkent va Samarqand, Buxoro viloyatlari bilan tanishman. Bizning tarix darsligimizda bular haqida batafsil yozilgan.

Xo Yuayua, Urumchi shahridagi 36-maktabning 8-sinf o'quvchisi:

- O'zbek bolalarining bilimdonligi haqida eshitganman. Ularni yurtimga taklif etaman.

Gulya Xaysya, 20 yosh:

- Men o'zbekchada bemalol gaplasha olaman. O'zbek tilini o'zim mustaqil o'rganganman. Nasib bo'lsa, O'zbekistonga albatta boraman.



namoyon bo'ldi. Ha, bizning bolajonlarimiz ham kitobxon, tirishqoq, ilm olishga chanqoq. Bilimdon bolalarimiz bemalol xorijlik tengdoshlari bilan bellasha oladi. Hech kimdan kam emas.

Vaholanki, farzandlarimizni umuminsoniy qadriyatlar ruhida har tomonlama barkamol rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish masalalari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Zamonaviy maktab, kitob do'konlari, kutubxonalar, sport inshootlari barpo etilyapti. Yaqindagina sirdaryolik kitobsevar o'quvchilar uchun yangi kitob do'koni ishga tushirilgani ham fikrimiz isbotidir.

Feruza SOYIBJON qizi

Shodmon OTABEK

bezashgan edi. Endi ota-onasiga nima deydi? Ukalaringga yaxshi qaramagansan, deya o'zini ayblashlari turgan gap. Eh, oilada to'ng'ich bola bo'lish ham qiyin ekan.

Azamatning boshi qotdi. Qo'li bilan haligi yozuvni paypaslab ko'rdi. Singlisining ismi mixdami yoki boshqa biror uchi o'tkir narsadami o'yib yozilgan, bilintirmay o'chirish oson emas ekan. Qiziq, buni kim qilgan bo'lishi mumkin? Anoraning o'zi yozmaganligi aniq, hali maktabga bormaydi, akalaridan endi harflarni o'rganyapti. Demak, Alisher yoki Asil yozgan. Ammo qay biri? Buni qanday aniqlasa bo'ladi? O'zlari ikki dunyoda ham bo'yniga olishmaydi. Daftarlari qarab bemalol ularning yozuvini ajrata oladi, ammo zumrashalar ayyorlik qilib devorga bosma harfda yozishibdi. Hech kim bilmasin, degan-da! Ularga hali ko'rsatib qo'yadi devorga yozish qanaqa bo'lishini!

Azamat devorga qaragan sayin jig'ibiyroni chiqib, o'zini qo'yarga joy topolmas, bir-biriga beso'naqay yonboshlab, qiyshayib turgan harflar ko'ziga negadir qishloq to'ylarida yog'och o'yin ko'rsatadigan masxarabozlarga o'xshab ketdi. Shu mahal yoniga chopqillab kelgan Anoraning so'zi og'zida qoldi:

-Akalaringni chaqir! -dedi Azamat zarda bilan.

(Davomi bor.)

G'ALATI APPARAT

Azamat darsdan keyin Yosh texniklar to'garagiga borgani uchun uyga ancha kech qaytdi. Eshik qo'ng'irog'ini bosgan zahoti yo'lakdan tasir-tusur qadam tovushlari eshitildi, uyda zerikib, har qanday sharpaga ilhaq bo'lib o'tirishgan ukalari baravariga yugurib chiqishdi. Eshik ochilgach, ostonada uzun-qisqa bo'lib singlisi Anora, undan keyin Asil, Alisher ko'rindi.

- Sumkani men olaman! - dedi Anora chaqqonlik bilan akasining sumkasiga qo'l cho'zarkan, bidirlab, o'zi kuzatgan bir kunlik yangiliklarni sharhlay boshladi: - Asil matematikadan yana «uch», Alisher rasmdan «besh» olibdi. Alish bizga o'rgatmayapti, nuqul o'zini o'ylaydi, - Anora bopladimmi degandek, akalariga qarab qo'ygach, qo'shimcha qildi: - Alish yana qo'lini bo'yoqqa chaplabdi.

Alisher beixtiyor qo'lini orqasiga yashirdi. Asil: «Chaqimchilikni bas qil», degandek Anoraga o'qrayib qo'ydi.

-Alish, choy qo'yib yubor! - dedi kiyimlarini

almashtirayotgan Azamat. Shu tobda uning qorni och, qulog'iga hech qanday gap kirmas edi. Oshxonada choyni o'zi damladi, nonga sariyog' surtib, tamaddi qila boshladi.

Otasi xizmat safariga ketgan, onasi hali ishdan qaytmagan edi. Azamat sal o'ziga kelgach, oshxonani biroz tartibga keltirgan bo'ldi. Yo'lakdan o'tayotganda nogoh devordagi g'ayritabiiy chiziqlar diqqatni jalb qildi. Durustroq razm soldi-yu, turgan joyida serrayib qoldi: devorga nima bilandir tirnab, o'yib «Anora» deya yozib qo'yilgandi. Bu qaysi yaramasning ishi?! Axir otasi uyni butun yoz bo'yi ta'mirlagan, qanchalik qiynalganini hamma ko'rgan, o'zlari ham baholi qudrat ko'maklashishgan. Otasi ta'mirga kerakli qurilish ashyolarining birini topsa, ikkinchisini topolmay rosa ovora bo'lgan. Yo'lak devorini esa rassom do'sti bilan birgalashib



(Hikoya)

BEQAROR NARSALAR

Bir hind donishmandi aytdi:

- Quyidagi olti narsaga ishonib bo'lmaydi:

1. Bulutning soyasiga.
2. Ahmoqning do'stligiga.
3. Ayol muhabbatiga.
4. Ortiqcha boylikka.
5. Zolim hukmdorga.
6. Yolg'on shon-shuhratga.

FOYDASIZ ODAMLAR

Bir donishmand dedi:

- Odamlarning besh toifasi o'ziga ham, yaqinlariga ham foyda yetkazolmaydi:

1. Bilganini boshqalarga o'rgatmoqchi bo'lgan tentak.
2. Yolg'on va'da beruvchi kishi.
3. Qo'ldan kelmagan ishga urinuvchi odam.
4. Aldamchi, ayyor xizmatkor.

KIM KUCHLI?

- Kimni kuchli odam desa bo'ladi? - deb bir donishmanddan so'radilar.

- Ochkozlikdan va buzqlikdan o'zini saqlaydigan odamni.

Yulduz AZIZOVA
tarjimasi

MAQTANMA XO'ROZ...


Babaq xo'roz qo'shnilarining xo'rozlari bilan jiqillashib qoldi. Unisini tepdi, bunisini cho'qidi, xullas, ularni qora qonga bo'yab, hovlisiga qaytib kirdi. Uydagi tovuqlar oldida maqtanmoqchi bo'ldi. Paxsaga qo'nib olib, qaqaqalay boshladi.



- Ko'rdinglarmi meni, qanaqaman? Tumshug'um qirg'iyinikidan ham o'tkir, bir cho'qishda pora-pora qilaman. Panjamni-ku, aytmay qo'ya qolay, tepsam, uloqniyam til tortmay o'ldiraman. Qani, qushning zo'ri bo'lsa, oldimga kelaversin, oqu-ququq...

Shu payt qaydandir bir sor lochin uchib keldi-yu, maqtanchoq xo'rozni changallagancha osmonda g'oyib bo'ldi.

S.QARNOQLI

**«O'ZBEKISTON TOG'LARI»
VENGERCHA KROSSVORDI**

Quyida berilgan birinchi va necha harfdan iboratligini anglatuvchi ma'lumot asosida vatanimizdagi tog' maskanlari nomini kataklardagi harflarni turli yo'nalishda o'qish bilan toping.

- | | |
|----------|----------|
| 1. V-7. | 12. M-8. |
| 2. V-4. | 13. N-6. |
| 3. P-6. | 14. Z-8. |
| 4. H-5. | 15. Q-8. |
| 5. Q-9. | 16. O-5. |
| 6. CH-6. | 17. M-9. |
| 7. Q-6. | 18. Q-9. |
| 8. O-4. | 19. T-8. |
| 9. O-9. | 20. V-9. |
| 10. F-7. | 21. V-8. |
| 11. T-9. | |

Foziljon ORIPOV tuzdi



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV

Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvov SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./ faks: (99871) 144-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

Noshir:
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta «O'zbekiston»
nashriyat-matbaa ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi. Hajmi A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 20641
Buyurtma N: J 3920